



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No8
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 262 sahifa.
2025-yil dekabr*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayeich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 28-fevraldagi
333/5-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

MEHMONXONA KORXONALARIDA INNOVATSION LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	10
Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi, Ochilova Hilola Farmonovna	
FAULT TOLERANCE AND SELF-HEALING IN IOT-ENHANCED P2P SYSTEMS	15
Ibrokhimkhuja Rikhsikhujayev, Mohit Bhandwal	
BIZNES BOSHQARUVIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	22
Ikromov Boisxon Bahodir o'g'li, Ozodbek Musayev	
BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA VIRTUAL LABARATORIYADAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI.....	27
Turayeva Sabrina Kamoliddin qizi, Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
YASHIL LOGISTIKA VA TRANSMILLIY KORPORATSIYALAR.....	32
Rafiqov Abror Baxtiyor o'g'li, Narzullayev Elmurod Shuxrat o'g'li	
OMBORXONALARNI BOSHQARISHDA RFID TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNI AFZALLIKLARI	36
Mirkamolov Mirsardor Mirxamdami o'g'li, Yuldashev Abduhakim Abdulkarimovich	
STARTAPLAR VA KICHIK BIZNESNING IQTISODIY O'SISH VA RIVOJLANISH JARAYONLARIDAGI ROLI	41
Abdumajidova Muxlisa Alisher qizi, Umarova Mukaddas Abbasovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY SUG'URTA TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA QO'LLASH ISTIQBOLLARI	46
Sobirova Ozoda Rustamovna, Safarov Javohir Ismoilovich	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA MILLIY TO'LOV TIZIMLARINING ELEKTRON TIJORATDAGI AHAMIYATI.....	50
Teshayev Sayimbek Anvarovich, Tashmuxeamedova Yayra Atxamovna	
CHANGES IN PULSE RATE IN BLOOD VESSELS DURING PHYSICAL EXERCISE	56
Pirnazarov Elchin Anvar o'g'li, Yoldasheva Roila Jumaevna	
JAHON IQTISODIYOTIDA GLOBAL XAVFSIZLIK VA IQTISODIY BARQARORLIK	61
Qayumov Sobit Obid o'g'li, Xasanov Nodir Erkinovich	
LABOR RESOURCES – THE MAIN FACTOR OF NATIONAL DEVELOPMENT.....	68
Qurbanov Tolmasjon Namoz ugli, Mustafayev Golib Sultonmurodovich	
ISTE'MOLCHI TANLOVI VA NAFLILIK NAZARIYASINI ILMIY ASOSLARI.....	75
Q.Abdulkarimov, M.Keldibekova, F.Umarov	
KORXONALARDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH	80
Tumaris Nietullaeva, Alimxodjayeva Nargiza Elshodovna	
OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING INSON VA JAMIYAT HAYOTIDAGI TA'SIRI HAMDA AXBOROT XURUJLARI	87
Kodirov Ozodbek, F.Umarov	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIGA KIRITILAYOTGAN INVESTITSIYALAR TAHLILI VA TARMOQNING MAMLAKAT EKSPORTIDAGI O'RNI.....	93
G'ulomiddin Bobobek Sardorjon o'g'li, G'ulamov Ilhom Akramovich	
BIZNESNI BOSHQARISHDA ERP TIZIMIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI	98
Abduhamidova Shodiyaxon Abdushukur qizi, Yuldashev Abduhakim Abdulkarimovich	
O'ZBEKISTON VA AFG'ONISTON HAMKORLIK MUNOSABATLARINING YANGI BOSQICI	103
Fayzullayev Aminjon, F.Umarov	
O'ZBEKISTONDA HUDUDLAR IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI TAFOVUTLAR	110
Najmiddinova Malikabonu Asrorovna, F.Umarov	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA CHARM-POYABZAL TARMOG'INING RIVOJLANISH YO'NALISHLARI XUSUSIDA	117
Mahmudov Orifbek Abdumomin o'g'li, Azmiova Feruza Payziyevna	



O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING TARKIBIY RIVOJLANISHI VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	122
Xayrullayev Javohir Sheraliyevich, Maqsudov Bunyodjon Abdusamat o'g'li	
MINTAQALARNI IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI TARTIBGA SOLISH VA XALQARO TAJRIBA.....	128
Xudoyberdiyev Feruzbek, F.Umarov	
MINTAQALAR IQTISODIYOTINING RIVOJLANISH HOLATINI BAHOLASH: TAHLIL VA USTUVOR YO'NALISHLAR.....	135
Yarashev Mirkomil, F.Umarov	
OROL DENGIZI INQIROZI OQIBATIDA YER DEGRADATSIYASI VA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH IMKONIYATLARI: QORAQALPOG'ISTON MISOLIDA (NDVI VA NDMI TAHLILI ASOSIDA)	141
Nurmatova Shahzoda, Oralbaev Bakhitjan Orintaevich, Ruziyeva Iroda Davutovna, Turotova Nigora Xolmurod qizi	
MINTAQADA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI	147
Abubakirova Xonzoda, F.U.Umarov	
ИНФОРМАЦИОННАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ И МОЛОДЁЖЬ: ПРОБЛЕМЫ ДУХОВНОГО ИММУНИТЕТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ	154
Абдуллаев Бехзод Баходир угли, Байбобоева Фируза Набижоновна	
SUN'IY INTELLEKT NAZARIYASI VA AMALIYOTI: TAJRIBALAR, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR	158
Hamroyeva Dilnura G'ayrat qizi, To'qmirzayev Kamol Mo'min o'g'li	
QISHLOQ HUDUDLARIDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDA XALQARO TASHKIOTLARNING (FAO, UNDP, IFAD) LOYIHALARI TAJRIBASI	162
Z.B.Negmatullayeva, O.Q.Xudayberdiyeva	
O'ZBEKISTON RAQAMLI IQTISODIYOTI VA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING IQTISODIY O'SISH STRATEGIYASIDAGI O'RNI.....	168
Bo'riyev Behruzbek Bahodir o'g'li, Elov Dilshod Abdujabborovich	
«ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ КЛИЕНТСКОГО ОПЫТА В БАНКАХ: ИНТЕГРАЦИЯ ОМНИКАНАЛЬНЫХ СТРАТЕГИЙ И СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ»	173
Каримов Диёрбек Дилшод ўгли, Уснатдинов Миратдин Саламатдинович, Юлдашев Жамшид Аббарович	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA INFLYATSIYANING ASOSIY OMILLARI VA ULARNI KAMAYTIRISH STRATEGIYALARI.....	182
Bazarbaeva Dildora Ekramjon qizi, Koshanov Abdimurat Azat uli	
ОСОБЕННОСТИ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКОЙ СТАБИЛЬНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	188
Хайруллаев Хожиакбар, Ишонкулова Феруза Асатовна	
QISHLOQ XO'JALIGIDA YASHIL TEXNOLOGIYALARNING QO'LLANILISHI.....	193
Sharipboyev Hasanboy Marks o'g'li, Olimov Maqsudjon Komiljon o'g'li	
HALOL MEHMONXONALARNI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI.....	198
Farxodov Zafar Qaxramon o'g'li, Shaymanova Nigora Yusupovna	
TIJORAT BANKLARINING BARQARORLIGINING MAMLAKAT IQTISODIYOTIDAGI O'RNI.....	203
To'rayeva O'g'iloy G'iyosovna, Dilmurodov Jurabek Ulug'bek o'g'li, Mirzayev Mirza Abdullayevich	
ФАКТОРЫ И ПРОБЛЕМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВОСТИ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПОТОКОВ В УЗБЕКИСТАНЕ	208
Мисс София Ёдмыанг, Рахматова Наргизахон Аъзамхоновна	
ОСОБЕННОСТИ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКОЙ СТАБИЛЬНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	214
Хайруллаев Хожиакбар, Ишонкулова Феруза Асатовна	



ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ СБЕРЕЖЕНИЯМИ И ИНВЕСТИЦИЯМИ В УСЛОВИЯХ ФОРМИРУЮЩЕЙСЯ РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКИ: АНАЛИЗ НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКИСТАНА.....	220
Абдумажидов Шохжохон Шухратович. Нозимов Эльдор Анварович	
ОСОБЕННОСТИ ВНЕДРЕНИЯ “ЗЕЛЁНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ” В БАНКОВСКУЮ СФЕРУ	226
Тохинова Азиза Олимжоновна, Ишонкулова Феруза Асатовна	
MOJIYAVIY HISOBOTLAR ISHONCHLILIGINI SHAKLLANTIRISHDA BUXGALTERIYA HISOB MEKANIZMLARINING AHAMIYATI	231
Jo'rayeva Risolat Shuxrat qizi, Mardonov Shaxriyor Xolmirzo o'g'li	
РАЗРАБОТКА ДОЛГОСРОЧНЫХ МАРКЕТИНГОВЫХ СТРАТЕГИЙ НА ОСНОВЕ ПОВЕДЕНЧЕСКИХ АСПЕКТОВ ПОТРЕБИТЕЛЕЙ	235
Юлдошев Бобур Бахромович, Маратова Гульшад Женгисовна, Саъдий Шукрилло Асатилло угли	
IQTISODIYOTNI LIBERALLASHTIRISH SHAROITIDA KORXONALARDA EKSPORT-IMPORT OPERATSIYALARI HISOB	246
Oltmishov Doniyor, Ermaxammadov Ro'zimurod, Qo'shbekova Shahnoza, Misirov Asliddin Mamasobirovich	
TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT BO'YICHA HISOBLASHUV MUOMALALARI HISOBINI TASHKIL ETISHNING ME'YORIY HUQUQIY ASOSLARI	249
Uralova Gavhar, Ibodova Madina, Alimova Abbos, Misirov Asliddin Mamasobirovich	
MOJIYAVIY SIYOSATNING MILLIY IQTISODIYOTNING BARQARORLIGIGA TA'SIRI VLIYANIE FINANSOVOY POLITIKI NA STABIL'NOST' Natsional'noy ekonomiki THE IMPACT OF FINANCIAL POLICY ON THE STABILITY OF THE NATIONAL ECONOMY.....	253
Ismatilloev Muhridin Asliddin o'g'li, Rejapov Xayrillo Xikmatullayevich	



MOLIYAVIY SIYOSATNING MILLIY IQTISODIYOTNING BARQARORLIGIGA TA'SIRI ВЛИЯНИЕ ФИНАНСОВОЙ ПОЛИТИКИ НА СТАБИЛЬНОСТЬ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ THE IMPACT OF FINANCIAL POLICY ON THE STABILITY OF THE NATIONAL ECONOMY



Ismatilloev Muhridin Asliddin o'g'li

O'zbekiston Milliy universiteti 3-bosqich talabasi

<https://orcid.org/0009-0002-9337-2614>

muhridinismatilloev849@gmail.com



Ilmiy rahbar:

Rejapov Xayrillo Xikmatullayevich

O'zbekiston Milliy universiteti,

Moliya va kredit kafedrasini mudiri, i.f.d., professor

<https://orcid.org/0000-0001-5403-9400>

Annotatsiya: Ushbu maqolada moliyaviy siyosatning milliy iqtisodiyot barqarorligiga ta'siri va roli tahlil qilingan. Xususan, davlatning fiskal va monetar siyosat vositalari iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash, inflyatsiyani tartibga solish hamda budget barqarorligini mustahkamlashdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, samarali moliyaviy siyosat iqtisodiy muvozanatni saqlash, investitsion muhitni yaxshilash va tadbirkorlik faolligini oshirishda muhim omil sifatida ko'rib chiqilgan. Tadqiqotda O'zbekiston iqtisodiyotida olib borilayotgan moliyaviy islohotlar misolida mavjud natijalar tahlil qilinib, iqtisodiy barqarorlikni yanada kuchaytirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy siyosat, milliy iqtisodiyot, iqtisodiy barqarorlik, fiskal siyosat, monetar siyosat, budget barqarorligi, inflyatsiya, iqtisodiy o'sish, davlat moliyasi.

Abstract: This article analyzes the impact and role of financial policy on the stability of the national economy. In particular, it highlights the importance of the government's fiscal and monetary policy instruments in ensuring economic growth rates, regulating inflation, and strengthening budgetary stability. It is also emphasized that effective financial policy serves as a key factor in maintaining economic balance, improving the investment climate, and increasing entrepreneurial activity. The study examines the current results of financial reforms being implemented in the economy of Uzbekistan and develops scientifically grounded proposals and practical recommendations for further strengthening economic stability.

Key words: financial policy, national economy, economic stability, fiscal policy, monetary policy, budgetary stability, inflation, economic growth, public finance.



Аннотация: В данной статье проанализировано влияние и роль финансовой политики в обеспечении стабильности национальной экономики. В частности, освещена значимость инструментов государственной фискальной и монетарной политики в обеспечении темпов экономического роста, регулировании инфляции и укреплении бюджетной устойчивости. Также показано, что эффективная финансовая политика является важным фактором в поддержании экономического равновесия, улучшении инвестиционного климата и повышении предпринимательской активности. В исследовании проанализированы существующие результаты проводимых в экономике Узбекистана финансовых реформ и разработаны научно обоснованные предложения и практические рекомендации по дальнейшему укреплению экономической стабильности.

Ключевые слова: финансовая политика, национальная экономика, экономическая стабильность, фискальная политика, монетарная политика, бюджетная устойчивость, инфляция, экономический рост, государственные финансы.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy siyosat davlatning iqtisodiyotni barqaror boshqarishida eng muhim vositalardan biri hisoblanadi. Moliyaviy siyosat orqali davlat iqtisodiy o'sish sur'atlarini rag'batlantiradi, inflyatsiya jarayonlarini nazorat qiladi, investitsion muhitni yaxshilashga intiladi va iqtisodiy xavf-xatarlarning oldini olishga xizmat qiluvchi mexanizmlarni shakllantiradi. Ayniqsa, jahon bozorlaridagi o'zgaruvchanlik, tashqi qarz dinamikasi, global inflyatsiya bosimi va geoiqtisodiy raqobat kuchaygan bir paytda moliyaviy siyosatning milliy iqtisodiyot barqarorligiga ta'sirini chuqur o'rganish zarurati yanada oshib bormoqda.

Mazkur masalaning O'zbekistonda dolzarbligi shundaki, so'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish, davlat budjeti intizomini mustahkamlash va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan chuqur va tizimli islohotlar bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston–2030" strategiyasi haqidagi PF-158-sonli Farmonida 2025–2030-yillar davomida jamoat moliyaviy boshqaruvini isloh qilish masalalari ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Ushbu yo'nalishda 5 ta strategik ustuvorlik, 16 ta aniq maqsad va ular ijrosini ta'minlashga qaratilgan 45 ta chora-tadbir rejalashtirilgan bo'lib, mazkur vazifalar asosan quyidagi yo'nalishlarni qamrab oladi¹. Ular quyidagilar:

- budjet intizomini kuchaytirish;
- o'rta muddatli budjet rejalashtirishni strategik yo'naltirish;
- davlat xarajatlari va investitsiyalar samaradorligini oshirish;
- budjet ijrosi sifatini ta'minlash;
- fiskal hisobot va shaffoflikni yaxshilash.

Strategiyada belgilangan asosiy vazifalardan biri — YaIM hajmini ikki baravarga oshirish orqali 2030-yilga borib O'zbekistonni yuqori o'rta daromadli davlatlar qatoriga olib chiqishdir. Ushbu maqsadga erishish uchun moliyalashtirish manbalarini kengaytirish va ularni yanada xilma-xil qilish talab etiladi. Strategiyaning iqtisodiy qismida esa biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash, investitsiya oqimini kuchaytirish, bozor mexanizmlarini erkinlashtirish hamda raqobatni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar ustuvor o'rinda turadi. Ushbu islohotlar moliyaviy barqarorlikning mustahkam asosini yaratishga xizmat qiladi. Shuningdek, strategiya faqat iqtisodiy o'sishni tezlashtirish va YaIM ko'rsatkichlarini oshirishni emas, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va aholining turmush darajasini yaxshilashni ham muhim yo'nalish sifatida belgilaydi. "Social protection single registry" tizimi orqali ijtimoiy yordam oluvchilarning 2022-yilda sezilarli darajada ko'paygani bu boradagi islohotlarning amaliy natija berayotganidan dalolat beradi.²

Ushbu chora-tadbirlar moliyaviy siyosatning samaradorligini oshirish, milliy iqtisodiyotning barqarorligini mustahkamlash hamda makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, fiskal intizomni kuchaytirish, budjet xarajatlarini optimallashtirish va monetar siyosat vositalarini takomillashtirish iqtisodiy o'sish sur'atlarini barqarorlashtirish hamda inflyatsion bosimlarni kamaytirishda muhim omil hisoblanadi. Shu sababli, moliyaviy boshqaruvni modernizatsiya qilish, moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish va iqtisodiyotning real sektoriga samarali yo'naltirilgan davlat moliyasini shakllantirish nafaqat global moliyaviy boshqaruv tendensiyalari, balki O'zbekistonning iqtisodiy islohotlar strategiyasi nuqtai nazaridan ham dolzarb ahamiyatga ega.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston–2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni. <http://lex.uz/docs/6600413>

2 Uzbekistan united nations country results report 2022. 2.1, 9. <https://uzbekistan.un.org/en/241301-uzbekistan-united-nations-country-results-report-2022>



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Moliyaviy siyosatni takomillashtirish bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar, milliy iqtisodiyot barqarorligiga ta'sir ko'rsatuvchi moliyaviy tavakkalchiliklarni chuqur tahlil qilishga hamda ularni kamaytirish uchun eng samarali yechimlarni ishlab chiqishga qaratilgan. Ilmiy adabiyotlarda ham moliyaviy siyosatning milliy iqtisodiyot barqarorligiga ta'siri masalasi alohida ko'rib chiqilgan. Masalan, I. Chugunov va hammualliflar o'zlarining "Fiscal and monetary policy of economic development" nomli ilmiy ishida fiskal va monetar siyosatning iqtisodiy barqarorlikka ta'sir qiluvchi asosiy jihatlarini chuqur tahlil qilganlar.³ Mualliflar fikricha, davlatning budjet siyosati, soliq tushumlari barqarorligi va pul-kredit mexanizmlarining samarali ishlashi iqtisodiy o'sishning izchil davom etishi hamda makroiqtisodiy muvozanatni saqlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Ayniqsa, fiskal intizom, davlat xarajatlarning oqilona tuzilishi va inflyatsiya bosimlarini kamaytirish choralari milliy iqtisodiyotning tashqi va ichki tavakkalchiliklarga bardoshlilikini oshiradi. Biroq ushbu tadqiqotning kamchiligi shundaki, unda fiskal va monetar siyosatning o'zaro uyg'unlashuvi jarayonida davlat tomonidan qo'llanilishi mumkin bo'lgan qo'shimcha stabilizatsiya vositalari – masalan, maqsadli budjet subsidiyalari, ijtimoiy himoya mexanizmlarini moliyalashtirish yoki davlat kafolatlari kabi omillar batafsil yoritilmagan. Tadqiqot asosan an'anaviy makroiqtisodiy vositalar samaradorligi va bozor mexanizmlarining o'rnini bilan cheklanadi. Natijada davlatning faol aralashuvi, ayrim holatlarda moliyaviy barqarorlikni kuchaytiruvchi muhim omil bo'lishiga qaramay, ilmiy izohlar doirasida cheklangan tarzda ko'rsatilgan.

Shuningdek, J. Lisy o'zining "The impact of fiscal and monetary policy on economic growth and cyclical development of the economy" nomli asarida fiskal va monetar siyosat vositalarining iqtisodiy o'sish sur'atlari va iqtisodiy sikllarning rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatishiga e'tibor qaratgan. Maqola moliyaviy siyosatning iqtisodiy o'sish va iqtisodiy sikllarga ta'sirini empirik usullar orqali o'rganishga qaratilgan.⁴ Muallif fiskal va monetar siyosat vositalarining iqtisodiy faollikning o'zgarishlari, ya'ni iqtisodiy sikllardagi o'zgarishlarga qanday ta'sir ko'rsatishini batafsil tahlil qiladi. Xususan, maqolada davlat budjeti va markaziy bank siyosatlarining qisqa va uzoq muddatli ta'sirlari hamda ular orqali milliy iqtisodiyot barqarorligini saqlashdagi roli ko'rsatib o'tilgan. J. Lisy ta'kidlagan muhim jihatlardan biri — fiskal siyosat va monetar siyosat o'rtasidagi uyg'unlik iqtisodiy sikllarni yumshatishda muhim ahamiyatga ega ekanligi. Shu bilan birga, maqolada ushbu siyosatlarining samaradorligi davlat iqtisodiyoti xususiyatlari va tashqi sharoitlarga bog'liq bo'lishi mumkinligi ta'kidlangan. Tadqiqotda olingan natijalar milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash uchun moliyaviy siyosatni strategik rejalashtirish zaruratini tasdiqlaydi. Biroq maqola asosan empirik ma'lumotlarga tayanib, moliyaviy siyosatning ijtimoiy va institutsional omillarga ta'sirini chuqurroq o'rganmagan. Shuningdek, davlat aralashuvining muhim boshqa instrumentlari, masalan, soliq imtiyozlari va investitsion rag'batlantirish choralari kamroq yoritilgan. Umuman olganda, J. Lisyning ishi moliyaviy siyosatning milliy iqtisodiyotdagi barqarorlikka ta'siri mavzusida ilmiy dalillar taqdim etib, ushbu sohada keyingi tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Bundan tashqari, O'zbekiston olimlari ham moliyaviy siyosatning milliy iqtisodiyot barqarorligiga ta'siri va shu jumladan monetar siyosat orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash masalalariga o'z ilmiy izlanishlarida alohida e'tibor qaratganlar. Masalan, Madina Hamroyeva o'zining "The role of monetary policy in ensuring the stability of the national economy and the world financial market" nomli ilmiy maqolasida milliy monetar siyosatning inflyatsiyani nazorat qilish, pul-kredit siyosatini boshqarish va makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlashdagi o'rnini chuqur tahlil qiladi.⁵ Muallif fikricha, samarali monetar siyosat nafaqat ichki iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, balki O'zbekistonning global moliya bozoriga tez va moslashuvchan integratsiyasini ta'minlashda ham muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, maqolada markaziy bankning roli va pul-kredit siyosatining kombinatsiyasi orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish usullari batafsil ko'rib chiqilgan. Biroq, tadqiqotda monetar siyosatning ijtimoiy va siyosiy omillarga ta'siri hamda xalqaro moliya bozorida beqarorlikning uzoq muddatli oqibatlari kamroq yoritilgan. Shunday bo'lsa-da, Hamroyevaning ishi milliy monetar siyosatning iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi nazariy va amaliy jihatlarini tushunishda muhim ilmiy manba hisoblanadi.

Yuqoridagi barcha izlanishlar moliyaviy siyosatning tavakkalchiliklari faqat iqtisodiy omillar bilan emas, balki institutsional, boshqaruv va madaniy omillar bilan ham chambarchas bog'liq ekanini ko'rsatadi. Xalqaro va milliy tajriba tahlillari shuni tasdiqlaydiki, risklarni samarali boshqarishning eng to'g'ri yo'li — bu tizimli, ko'p bosqichli va davlat hamda xususiy sektor sherikligiga asoslangan yondashuvni joriy etishdir.

3 Igor Chugunov, Mykola Pasichnyi, Valeriy Koroviy, Tetiana Kaneva, Andriy Nikitishin. "Fiscal and monetary policy of economic development" (2021), 10(1), 42. <https://ecsdev.org/ojs/index.php/ejsd/article/view/1153>

4 Lisy J. The impact of fiscal and monetary policy on economic growth and cyclical development of the economy. Vol 26, No 3 (2018), 439. <https://journals.rudn.ru/economics/article/view/20299>

5 Hamroyeva, M. (2025). The role of monetary policy in ensuring the stability of the national economy and the world financial market. Modern science and research, 4(10), 598-606. <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/138717>



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot jarayonida ilmiy mushoxadalash, jadval va grafik, tizimli tahlil, statistik guruhlash, taqqoslash kabi metodlardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJA

Moliyaviy siyosat milliy iqtisodiyotning barqarorligi va uzluksiz rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, iqtisodiy o'sish sur'atlarini oshirish, inflyatsiyani nazorat qilish hamda budget barqarorligini saqlashda fiskal va monetar siyosat vositalarining samarali qo'llanilishi zarur hisoblanadi. Bugungi kunda global iqtisodiy beqarorlik va moliyaviy risklarning ortishi fonida, moliyaviy siyosat milliy iqtisodiy barqarorlikni saqlash uchun asosiy vositalardan biriga aylangan.

Quyida ba'zi rivojlangan mamlakatlar bilan birgalikda O'zbekistonning ham moliyaviy siyosatiga oid ko'rsatkichlarni WDI(World development indicators) tayangan holda ko'rib o'tamiz.

1-jadval. Turli mamlakatlar moliyaviy ko'rsatkichlarining yillar bo'yicha taqqoslama statistikasi

Mamlakat nomi	Seriya nomi/yil	2022	2023	2024
Germaniya	Joriy hisob balansi (YalM ulushida)	3.8850668	5.5566858	5.6658356
Germaniya	Kredit bo'yicha foiz stavkasi	..	..	..
AQSH	Joriy hisob balansi (YalM ulushida)	-3.818764	-3.347739	-4.0613276
AQSH	Kredit bo'yicha foiz stavkasi	..	..	..
O'zbekiston	Joriy hisob balansi (YalM ulushida)	-3.159059	-7.5969951	-4.9724174
O'zbekiston	Kredit bo'yicha foiz stavkasi	21.746115	22.150086	23.133938
Xitoy	Joriy hisob balansi (YalM ulushida)	2.4205925	1.4415829	2.2616499
Xitoy	Kredit bo'yicha foiz stavkasi	4.35	4.35	4.35

Manba: WDI(World development indicators) hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzildi⁶.

Mazkur jadvalda ko'rinib turibdiki, Germaniya, AQSH, O'zbekiston va Xitoyning 2022–2024-yillardagi moliyaviy ko'rsatkichlari moliyaviy siyosatning milliy iqtisodiyot barqarorligiga ta'sirini qiyosiy jihatdan tahlil qilish imkonini beradi. Jadvalda joriy hisob balansi (YalMga nisbatan) hamda kredit bo'yicha foiz stavkalari asosiy indikatorlar sifatida keltirilgan bo'lib, ular tashqi va ichki iqtisodiy barqarorlik darajasini ifodalaydi. Ma'lumotlarga ko'ra, Germaniyada joriy hisob balansi barcha yillarda barqaror musbat bo'lib, 2022-yilda 3,9 foizni, 2023-yilda 5,6 foizni va 2024-yilda 5,7 foizni tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkichlarning o'sib borishi Germaniyada olib borilayotgan ehtiyoqkor va muvozanatli moliyaviy siyosat tashqi savdo barqarorligini ta'minlayotganini hamda milliy iqtisodiyotning tashqi xatarlarga nisbatan chidamliligini oshirayotganini ko'rsatadi.

AQSHda esa joriy hisob balansi tahlil qilinayotgan davrda barqaror manfiy bo'lib qolmoqda. 2022-yilda –3,8 foizni tashkil etgan mazkur ko'rsatkich 2023-yilda biroz yaxshilangan bo'lsa-da (–3,3 foiz), 2024-yilda yana –4,1 foizgacha yomonlashgan. Bu holat AQSH moliyaviy siyosatining ichki talab va iste'molni rag'batlantirishga yo'naltirilganini, biroq tashqi iqtisodiy muvozanatning yetarli darajada ta'minlanmayotganini ko'rsatadi. Natijada, uzoq muddatda tashqi qarz va savdo defitsiti iqtisodiy barqarorlikka bosim o'tkazuvchi omil bo'lib qolmoqda.


O'zbekiston misolida joriy hisob balansining 2022–2024-yillarda o'zgaruvchan va asosan manfiy bo'lgani kuzatiladi. Xususan, 2022-yilda –3,2 foiz bo'lgan ko'rsatkich 2023-yilda –7,6 foizgacha keskin pasaygan, 2024-yilda esa –5,0 foizga nisbatan yaxshilangan. 2023-yildagi pasayish import hajmining ortishi, investitsion loyihalar va ichki talabning kengayishi bilan izohlanadi. 2024-yildagi nisbiy tiklanish esa moliyaviy siyosat orqali makroiqtisodiy muvozanatni tiklashga qaratilgan choralar iqtisodiy barqarorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini ko'rsatadi. Xitoyda joriy hisob balansi barcha yillarda musbat bo'lib, 2022-yilda 2,4 foiz, 2023-yilda 1,4 foiz va 2024-yilda 2,3 foizni tashkil etgan. Ushbu barqarorlik davlat tomonidan faol boshqariladigan moliyaviy siyosat, eksportga yo'naltirilgan iqtisodiy model hamda tashqi savdo muvozanatini qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlar bilan izohlanadi. Bu holat Xitoy iqtisodiyotining tashqi shoklarga nisbatan barqarorligini ta'minlamoqda. Kredit bo'yicha foiz stavkalari tahlili moliyaviy siyosatning ichki iqtisodiy barqarorlikka ta'sirini yanada yaqqolroq namoyon etadi. O'zbekistonda kredit stavkalari 2022–2024-yillarda yuqori va o'sib boruvchi bo'lib, mos ravishda 21,7 foizdan 23,1 foizgacha yetgan. Bu qat'iy pul-kredit siyosati inflyatsiyani jilovlashga xizmat qilayotgan bo'lsa-da, qisqa muddatda investitsion faollik va biznes subyektlarining moliyaviy barqarorligiga cheklovchi omil bo'lishi mumkin.

6 World development indicators 2024. <https://databank.worldbank.org/home/source/ddperror.aspx>



Xitoyda esa foiz stavkalari 4,35 foiz darajasida barqaror saqlanib, iqtisodiy o'sishni va investitsiyalarni rag'batlantirishga yo'naltirilgan moliyaviy siyosat olib borilayotganini ko'rsatadi. Umuman olganda, mazkur statistik ma'lumotlar moliyaviy siyosat milliy iqtisodiyot barqarorligining muhim omili ekanini tasdiqlaydi. Joriy hisob balansining barqarorligi tashqi iqtisodiy muvozanatni, foiz stavkalari esa ichki iqtisodiy faollik va inflyatsiya darajasini belgilab bermoqda. Germaniya va Xitoy tajribasi muvozanatli va uzoq muddatga yo'naltirilgan moliyaviy siyosat iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashini ko'rsatsa, O'zbekiston va AQSH misolida moliyaviy siyosatni tashqi va ichki muvozanatni hisobga olgan holda yanada takomillashtirish zarurligi yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Shuningdek, moliyaviy siyosatni shakllantirish va amalga oshirish jarayoni ham murakkab va ko'p bosqichli tizim bo'lib, u milliy iqtisodiyotda yuzaga keladigan makroiqtisodiy noaniqliklarni kamaytirish hamda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Inflyatsiya darajasining o'zgarishi, iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayishi yoki tezlashuvi kabi omillar moliyaviy siyosat uchun asosiy risk manbalari hisoblanadi. Shu sababli, moliyaviy siyosatni yuritishda ushbu ko'rsatkichlarni oldindan tahlil qilish va ularni samarali boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi.



1-rasm. 2024-yilda dunyo davlatlarining YaIM o'sish sur'ati va inflyatsiya darajasi ko'rsatkichlari(foizda)⁷.

Manba: WDI(World development indicators) hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Mazkur rasmda keltirilgan ma'lumotlar Germaniya, AQSH, Xitoy va O'zbekiston misolida inflyatsiya darajasi hamda YaIM o'sish sur'atlari o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilish orqali moliyaviy siyosatning milliy iqtisodiyot barqarorligiga ta'sirini ochib berishga xizmat qiladi. Ushbu ikki ko'rsatkich iqtisodiy barqarorlikni baholashda asosiy makroiqtisodiy indikatorlar hisoblanadi. 1-rasmdan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda inflyatsiya darajasi nisbatan yuqori bo'lib, 9,63 foizni tashkil etgan. Shunga qaramay, YaIM o'sish sur'ati 6,5 foiz darajasida saqlanib qolgan. Bu holat O'zbekistonda olib borilayotgan moliyaviy siyosat iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilganini, biroq inflyatsion bosim iqtisodiy barqarorlik uchun muhim xavf omili bo'lib qolayotganini ko'rsatadi. Yuqori inflyatsiya sharoitida iqtisodiy o'sishni ta'minlash davlat xarajatlari va investitsion faollik hisobiga amalga oshirilayotganini anglatadi, bu esa uzoq muddatda pul-kredit siyosatini yanada qat'iyashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Xitoyda inflyatsiya darajasi juda past bo'lib, atigi 0,22 foizni tashkil etgan, YaIM o'sish sur'ati esa 4,98 foiz darajasida qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkichlar Xitoyda olib borilayotgan ehtiyotkor va muvozanatli moliyaviy siyosat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilayotganini ko'rsatadi. Past inflyatsiya sharoitida nisbatan yuqori iqtisodiy o'sishga erishilishi pul-kredit va fiskal siyosatning muvofiqlashtirilgan holda olib borilayotganidan dalolat beradi. Germaniyada inflyatsiya darajasi 2,26 foizni tashkil etgan bo'lsa-da, YaIM o'sish sur'ati manfiy bo'lib, -0,24 foiz darajasida qayd etilgan. Bu holat shuni ko'rsatadiki, inflyatsiya nisbatan nazorat ostida bo'lsa ham, tashqi iqtisodiy omillar, energiya narxлари va global iqtisodiy beqarorlik Germaniya iqtisodiyotining o'sish sur'atlariga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Natijada, moliyaviy siyosat barqarorlikni saqlab qolishga yo'naltirilgan bo'lsa-da, qisqa muddatda iqtisodiy faollikni rag'batlantirish imkoniyatlari cheklangan. AQSHda inflyatsiya darajasi 2,95 foizni, YaIM o'sish sur'ati esa 2,8 foizni tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkichlar AQSH moliyaviy siyosati inflyatsiyani nazorat qilish va iqtisodiy o'sishni saqlab

7 World development indicators 2024. <https://databank.worldbank.org/home/source/ddperror.aspx>



qolish o'rtasida nisbatan muvozanatga erishganini ko'rsatadi. Biroq iqtisodiy o'sish sur'atlarining o'rtacha darajada bo'lishi moliyaviy siyosatning ehtiyotkorlik bilan olib borilayotganini anglatadi. Umuman olganda, keltirilgan statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, moliyaviy siyosatning samaradorligi inflyatsiya darajasi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi muvozanat orqali namoyon bo'ladi. Past va barqaror inflyatsiya sharoitida iqtisodiy o'sish ta'minlangan mamlakatlarda milliy iqtisodiyot barqarorligi mustahkamlanadi. Aksincha, inflyatsiyaning yuqori darajasi qisqa muddatda iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashi mumkin bo'lsa-da, uzoq muddatda makroiqtisodiy barqarorlik uchun jiddiy xatarlar yuzaga keltiradi. Shu bois, moliyaviy siyosatni olib borishda inflyatsiyani jilovlash va iqtisodiy o'sishni barqarorlashtirish o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Moliyaviy siyosatning milliy iqtisodiyot barqarorligiga ta'siri bugungi kunda mamlakatimiz uchun strategik ahamiyat kasb etmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, samarali moliyaviy siyosat vositalari — budjet siyosati, soliq siyosati va pul-kredit siyosati orqali iqtisodiyotda inflyatsiyani nazorat qilish, investitsiyalarni rag'batlantirish hamda iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari yaratilmoqda. Ushbu jarayonda davlatning makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi roli, shuningdek, moliyaviy siyosat vositalarining moslashuvchanligi muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, moliyaviy siyosatning samaradorligini oshirish uchun uning instrumentlarini yanada takomillashtirish, iqtisodiy risklarni aniqlash va boshqarish mexanizmlarini mustahkamlash zarurati mavjud. Xususan, makroiqtisodiy muvozanatni saqlash, moliyaviy bozorlardagi beqarorliklarni kamaytirish va investitsiya muhitini yaxshilash bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni joriy etish milliy iqtisodiyot barqarorligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi ilmiy asoslangan tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

1. Moliyaviy siyosat instrumentlarini diversifikatsiya qilish va iqtisodiy sharoitga mos ravishda tezkor moslashishni ta'minlash.
2. Moliyaviy risklarni monitoring qilish va boshqarish tizimlarini raqamlashtirish orqali tezkor qarorlar qabul qilish imkoniyatini yaratish.
3. Davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, moliyaviy resurslarni birlashtirish orqali iqtisodiy barqarorlikni oshirish.
4. Moliyaviy siyosat sohasida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini doimiy ravishda oshirish.

Xulosa o'rinda ta'kidlash joizki, moliyaviy siyosatning milliy iqtisodiyot barqarorligiga ta'sirini samarali boshqarish mamlakatimizning barqaror iqtisodiy o'sishi, makroiqtisodiy muvozanatni saqlash va xalq farovonligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Shu sababli, moliyaviy siyosatning strategik vazifalari va ularni amalga oshirish mexanizmlari ustida kompleks yondashuvni joriy etish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmoni. <http://lex.uz/docs/6600413>
2. [Uzbekistan united nations country results report 2022. 2.1, 9. https://uzbekistan.un.org/en/241301-uzbekistan-united-nations-country-results-report-2022](https://uzbekistan.un.org/en/241301-uzbekistan-united-nations-country-results-report-2022)
3. Igor Chugunov, Mykola Pasichnyi, Valeriy Koroviy, Tetiana Kaneva, Andriy Nikitishin. "Fiscal and monetary policy of economic development" (2021), 10(1), 42. <https://ecsdev.org/ojs/index.php/ejsd/article/view/1153>
4. Lisy J. The impact of fiscal and monetary policy on economic growth and cyclical development of the economy. Vol 26, No 3 (2018), 439. <https://journals.rudn.ru/economics/article/view/20299>
5. Hamroyeva, M. (2025). The role of monetary policy in ensuring the stability of the national economy and the world financial market. Modern science and research, 4(10), 598-606. <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/138717>
6. World development indicators 2024. <https://databank.worldbank.org/home/source/ddperror.aspx>
7. <https://en.wikipedia.org/>
8. <https://www.mf.uz>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

8-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>